

Kuz manzarasi



Kuz – yorqin ranglar va musaffo havo fasli. Bu faslda barglar rangini o'zgartiradi, tog'lar sokinlikka burkanadi, Quyosh esa iliq nur socha boshlaydi.



Bugun darsda rasm va tabiiy materiallar uyg'unligida **kuz manzarasini** yaratib, unda bu faslning kayfiyatini aks ettirishga harakat qilamiz.



Sizga kerak bo'ladi:



- karton, qog'oz;
- yelim, qalam;
- qog'oz sochiqlar;
- qaychi;
- kuzgi yaproqlar.

Ish rejasi:

1. **Tog'larni** noodatiy usulda **chizing**. Buning uchun **qog'oz varag'ini** tog' shaklida ehtiyotkorlik bilan **yirtib oling**. Uni **asosiy varaqning** tog'lar joylashadigan **qismiga qo'ying**. Oddiy qora qalam uchini **qaychi bilan qirtishlab**, varaq ustiga **tushiring**. Uni qog'oz sochiq bilan **ishqalang**. Tog'lar konturini siljiting yoki uni aylantirib, jarayonni takrorlang. Shunda chiroyli **tog'lar sharpasi** hosil bo'ladi.
2. Varaqning pastki cheti bo'ylab **kuzgi yaproqlarni yopishtiring** va chetlaridan ortiqchasini ehtiyotkorlik bilan qirqib tashlang.
3. Qo'shimcha detallarni (qushlar, quyosh) chizib, ishni yakunlang.



Kuz manzarasi

